

**AXBOROT OLISH HUQUQINI TA'MINLASHNING MILLIY VA
XALQARO HUQUQIY ASOSLARI: BMT VA O'ZBEKISTON
O'RTASIDAGI HAMKORLIK**

Otabek Abdumalikov

Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi talabasi
oabdumalikov892@gmail.com

***Annotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro BMT tashkiloti o'rtasida axborot olish huquqini ta'minlash, fuqarolarning axborot olishdagi xavfsizligini ta'minlash huquqiy standartlarining ahamiyati va hamkorlik samaradorligi haqida tadqiq etiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining mazkur jarayondagi roli tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** BMT, Konstitutsiya, xalqaro qonunchilik, milliy huquqiy hujjatlar, axborot olish huquqi, huquqiy standartlar, Filter Fubble, tabiiy huquq.*

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ
ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА ИНФОРМАЦИЮ:
СОТРУДНИЧЕСТВО МЕЖДУ ООН И УЗБЕКИСТАНОМ**

Отабек Абдумаликов

Ташкентский государственный юридический университет
Факультет магистратуры и заочного образования
Студент факультета права СМИ
oabdumalikov892@gmail.com

***Аннотация:** в статье рассматривается значение правовых норм и эффективность сотрудничества Республики Узбекистан с ООН по обеспечению права на информацию, безопасности граждан при получении информации. Анализируется роль Всеобщей декларации прав человека ООН в этом процессе.*

***Ключевые слова:** ООН, Конституция, международное право, национальные правовые инструменты, право на информацию, правовые стандарты, Filter Fubble, естественное право.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda fuqarolik jamiyatining axborot izlash, olish, foydalanish, tarqatish huquqlari hamda so‘z erkinligi kabi shaxsiy huquq va erkinliklarini ta‘minlash borasida xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlar sezilarli darajada rivojlandi. Bu jarayon ayniqsa ta‘lim, siyosat va jurnalistika sohasida keng imkoniyatlarni ochdi va fuqarolarning har tomonlama to‘g‘ri axborot olish madaniyatini shakllantirishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu huquqni xalqaro miqyosda ta‘minlash, insonlarning axborot, so‘z va ifoda erkinligini to‘laqonli ta‘minlash, shu bilan birgalikda senzura qarshi kurashish va axborotni cheklash kabi holatlarning oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Evropa Ittifoqi (YI) turli qonun hujjatlari ishlab chiqdi. Masalan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hamda Yevropa Ittifoqining “Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa Konvensiyasi” inson huquqlarini shu jumladan xalqaro miqyosida fuqarolarning so‘z va axborot erkinligini ta‘minlashga qaratilgan muhim qadamlar bo‘ldi. Ushbu qonun hujjatlari va undagi aniq belgilab qo‘yilgan huquqiy me‘zonlar insonlarning shaxsiy erkinligi bo‘lgan axborot va ma‘lumotlardan (taqiqlangan axborotlardan tashqari) erkin foydalanishda, o‘z fikrini erkin va tazyiqlarsiz ifoda etishi kerak ekanini va bunda ularga to‘laqonli imkoniyatlar yaratib berish kerakligini e‘tirof etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi 2017-yildan boshlab, hukumatning ochiqlik, oshkoralik

siyosati, davlat tashkilotlarining fuqarolar oldida javobgarlik hissini oshirishi, olib borilayotgan har bir faoliyat ommaviy axborot vositalarining har qanday shaklidan foydalangan holda fuqarolarni xabardor qilishi kerakligi kabi islohot va tashabbuslarning samarasi o'laroq vujudga keldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti e'tirofiga ko'ra, O'zbekiston milliy qonunchilikni isloh etishda BMT va uning inson huquqlarini himoya tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladigan taklif va tavsiyalarni to'liq inobatga olishni boshlaganini aynan shu yildan boshlagan. Hamda 2017-yildan to shu kunga qadar inson huquqlarini ta'minlash, axborot, so'z, ifoda erkinligi va raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun yetarli shart sharoitlar yaratish to'g'risidagi maslahat va tavsiyalarini hukumat qonunchiligi darajasida ko'rib chiqdi.

Hozirgi kunga qadar, konstitutsion o'zgarishlar qilinganda ham xalqaro qonunchilik bunda andoza vazifasini bajargani, unda inson qadri, uning huquq va erkinliklari prinsipi asosida qayta ishlab chiqilgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholandi.

Ushbu maqolada, O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlikni, bunda inson huquqlarini - axborot olish, tarqatish, izlash va foydalanish, so'z erkinligini - himoya qilish borasidagi amaliy ishlarni, mutaxassislarning bu boradagi fikrlarini tahlil qilishga qaratilgan, muallifning taklif va tavsiyalari keltirilgan.

USLUBLAR

Ushbu tadqiqotda, axborot olish erkinligi borasida O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik, olib borilayotgan islohotlar hamda axborot olish erkinligining xalqaro va ichki huquqiy himoyasini o'rganishga qaratilgan yondashuvlar qo'llaniladi. Tadqiqot sifatida

huquqiy tahlil (legal analysis usulidan foydalanildi, bu milliy va xalqaro huquq normalari, BMT rezolutsiyalari, huquqshunos olimlarning fikr hamda axborot erkinligini ta'minlashda qilgan yangiliklari va boshqa rasmiy hujjatlarni o'rganish orqali amalga oshirildi. Ushbu huquqiy tahlil davomida yoritilgan ishning natijasini ko'rsatish uchun aniq raqamlar va ko'rsatgichlar bilan dalillash (statistic) uslubidan ham ma'lum darajada foydalanish tanlandi. Asosiy e'tibor, 2023-yildagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (yangi tahriri) ga, 2002-yilgi "Axborot erkinligi prinsiplari kafolatlari to'g'risida"gi va "Axborot olish kafolatlari va erkilingi to'g'risida"gi qonunlarga, 1948-yilgi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ga, "O'zbekiston - 2030 va Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasiga qaratildi. Shuningdek, tahlil uchun ikkilamchi manbalar - ilmiy maqolalar, ekspert fikrlari, statistik ma'lumotlardan ham foydalanildi. Amerikalik huquqshunos, yozuvchi va jurnalistlarning fikrlari o'rganildi, Filter qopqog'i (Filter Bubble) nomli tushuncha alohida tahlil qilindi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro huquq tizimida, xususan, axborot va so'z erkinligini ta'minlashda va fuqarolarning huquqiy himoyasini yanada mustahkamlashda O'zbekiston Respublikasi o'rtasida tizimli hamkorlik shakllanib bormoqda. Mustaqillikning dastlabki o'n yilligida qabul qilingan "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risidagi qonun respublika hududida yashayotgan barchaning, millati, dini, irqi, kelib chiqishi va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar axborotdan erkin foydalanish, izlash, olish va tarqatish kabi shaxsiy huquqini taminlashda huquqiy asos bo'lgan bo'ldi. Undan keyin "Axborot erkinligi to'g'risidagi qonun" vaziyatni yanada yaxshiladi va axborot huquqi borasida aniq

huquqiy me'zonlarni belgiladi. Ushbu qonunning 3-moddasida, har bir fuqaro uchun axborot olish huquqin kafolatlanadi. Har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi deya qat'iy belgilangan. 2023-yilda qayta tahrirdan chiqqan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi esa axborot olish huquqini ta'minlash, unga nisbatan g'ayriqonuniy aralashuv va cheklovlarga nisbatan ancha aniq va majburiy moddani kiritdi. Uning 33-moddasida, nafaqat axborotni olish va tarqatish erkinligi davlat zimmasida ekanini va balki Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishini o'z zimmasida ekanini belgilagan. Bu esa, axborot ko'lamini, istemolchilik va axborot madaniyatini, axborot hajmi, foydalanuvchilar xatti-harakatlarini yanada barqaror monitoring qilish, ularning har tomonlama huquqiy muhofazasini ham ta'minlash imkonini bera boshladi.

Tadqiqot shuningdek, 2020-yil 22-iyuldagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha HRC44 rezolyutsiyasi orqali inson huquqlarini targ'ib qilishda, axborot erkinligini nafaqat offline holatda, va endilikda online platformalardagi jarayonlarda ham ta'minlash, ularni dizinformatsiyalar tahdididan himoyalash choralarini ishlab chiqish, 19-moddaga ayni shu qismi qo'shimcha qilish borasida amaliy ishlar olib bordi. Sababi, hozirgi kunda, eng ko'p axborot aynan internet tarmoqlaridan iste'mol qilinmoqda.

Undan tashqari, 2017-2024-yillar oralig'ida, BMT inson huquqlari va O'zbekiston Respublikasining axborot olish huquqi masalasidagi yakdil harakatlari va hamfikrlik holatlari keskin rivoj topdi. Xususan, BMT tomonidan taklif etilgan tavsiyalar, xalqaro me'yoriy standartlar milliy qonunchilikda o'z ifodasini ko'rsatdi. Jamiyatimizdagi har bir inson shaxsiy erkinliklari muhofazasining

ta'minlovi davlat zimmasida va xalqaro tashkilotlar tomonidan himoya etilishi e'tirof etila boshlandi. O'zbekiston dunyoga har tomonlama ochildi va oshkoralik siyosati, axborot manbaalarini ochiqlash borasida Markaziy Osiyo mamlakatlariga o'rnak bo'la boshladi. Axborot erkinligi rivoj topishi, raqamlarda o'z aksini ko'rsatdi. 2016-yilda, Press Freedom (OAV erkinligi) Indexida 166-o'rinni qayd etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, 11 pog'ona tushishga qaramay 148-o'rinni egallan turgani ham, sezilarli o'sish deb baholasa bo'ladi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Axborot olish huquqini mustahkamlashda so'nggi yillarda qilibayotgan ishlar va amaliy chora-tadbirlar, xalqaro hamkorlik anchayin samarali yo'l ekani tadqiqot davomida isbotlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ham xalqaro ham milliy qonunchilikdagi o'zgarishlar, zamonaviy tendensiyalar, internet va online platformalarning kirib kelishi bilan bog'liq. Shu sababdan ham, hali yana qayta bu borada nazariy hamda amaliy tadqiqot ishlarini olib borish, internet orqali uzatiladigan axborotlarni turlarga ajratib chiqish, axborotni cheklash holatlari hali chuqur tahlillarga muhtoj ekanini ko'rsatdi. 2020-yilda BMT rezolutsiyasi, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Evropa Konvensiyasida belgilangan qoidalarga ko'ra, axborotni uni uzatuvchi shaklidan qat'iy nazar olish huquqi belgilangan. Bu o'z navbatida insonlarga axborotdan har qanday shaklda - audio, video, matn va visual shaklda olish imkonini berdi. Biroq, internetdagi va matbuot orqali uzatilayotgan ma'lumotlarning hajmi keskin ortib ketishi, ularni butkul nazorat qilish imkonini yo'qotishga olib keldi. Bu esa, dizinformatsiya, feyk xabarlar oqimini kengaytirib yubordi. Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda Konstitutsiyaga qo'shimcha o'zgarishlar kiritilgan bir davrda, xalqaro

qonunchilikdan andoza olgan holatda internet tarmog'idan foydalanish hamma uchun shaxsiy huquq etib belgilanishi ushbu huquqning mustahkam etib belgilanishida tub burilishlar yasay oldi. Jamiyatning har bir bo'g'ini nafaqat axborotdan foydalanish va balki unga egalik qilish darjasiga erishdi. Bu davlatning ochiqlik siyosatini va jahondagi nufuzini anchayin oshirdi. Biroq, Amerikalik yozuvchi, tadbirkor va media faol Eli-Pariserning "Filtr qopqog'i" (Filter Bubble) nazariyasiga ko'ra, endilikda tarmoq foydalanuvchilarining axborotdan o'zlari bilmagan holatda cheklanishi keng miqyosda kuzatilmoqda. Ya'ni, axborotni olish mobaynida, fuqarolar qiziqishlari ustiga qurilgan tarmoq algoritmlari, odamlarni muhim axborotlarni berishga emas, qiziqishlari ko'ra juda tor doirada ma'lumot taqdim etishi, insonlarning axborot olishga bo'lgan huquqini buzilishi deb qaramoqda. Demak, hali axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishda yangi nazariyalarni ilgari surish va xalqaro tajriba asosida, mavjud va joriy qilinayotgan xalqaro huquqiy asos va normalarni milliy qonunchilikka moslash va amaliyotda tatbiq etish dolzarb vazifadir.

Tavsiyalar :

1. **Huquqiy uyg'unlikni ta'minlash:** Axborot olishda, unda yuzaga kelayotgan muommalarni qayta tasniflash, axborot cheklovining aniq asoslarini belgilash.
2. **Axborot turlarini aniqlash:** Axborotning qonunda belgilangan uch toifasidan tashqari, mavjud axborotlarni qayta nomlash, ularni foydalanish mumkin yoki ta'qiqlangan axborot toifasiga kiritish;

3. **Axborot madaniyatini shakllantirish:** Fuqarolar o'rtasida avvalo tarmoqlardan to'g'ri foydalanish, unda axborotlarga nisbatan immunitet va madaniyatni shakllantirish.

4. **Axborot huquqini fundamental huquq etib belgilash:** Axborot inson to tug'ilganidan boshlab qabul qilar ekan, bu uning ajralmas huquqidir. Axborot shaxsiy va professional sohalarda insonning rivojlanishida katta hissa qo'shar ekan, axborot nafaqat shaxsiy va balki jamiyatdagi istalgan sohada qo'llanilishi zaruriy talab ekanini inobatga olib, axborotsiz biror faoliyat yuritish mumkin emasligini hisobga olib, uni fundamental huquq darajasiga olib chiqish.

Xulosa qilib aytganda, axborot olish huquqini to'laqonli ta'minlash, uning huquqiy himoyasini yanada mustahkamlash davlatning, jamiyatning va fuqarolarning xalqaro maydonda yuksalishining asosiy mehanizmidir. Bu yo'lda, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, milliy qonunchilikni aniq holatga keltirish va amaliy jihatdan muvofiqlashtirish asosiy vazifalar sanaladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Inson huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. - URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml.

2. Inson huquqlari bo'yicha Evropa konvensiyasi. 4-noyabr 1950-yil imzolangan:

https://uz.wikiaro.ru/wiki/European_Convention_on_Human_Rights

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha HRC44 rezolyutsiyasi. 2020-yil 22-iyul.

<https://www.article19.org/resources/hrc44-un-resolution-on-freedom-of-expression/#:~:text=The%20resolution%20reaffirms%20that%20the,other%20human%20rights%20and%20freedoms.>

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). 33-moddasi.
<http://lex.uz//uz/docs/-6445145>.

5. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘irisida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.04.1997 yildagi 400-I-son:
<http://lex.uz//docs/-1319>.

6. Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘irisida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son: <http://lex.uz//docs/-52268>.

7. O‘zbekiston - 2030 strategiyasi. 11.09.2023 yildagi PF-158-son farmoni:
<http://lex.uz//ru/docs/-6600413>.

8. Raqamli O‘zbekiston - 2030 5.10.2020 yildagi PF-6079-son farmoni:
https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/raqamli_uzbekiston-2030_strategiyasi_qabul_qilindi.

9. An information society: free or feudal. Lawrence Lessig
<https://www.itu.int/net/wsis/docs/pc2/visionaries/lessig.pdfIPC>.

10. Uzbekistan and UNO partnership. (2017)
https://upr-info.org/sites/default/files/country-document/2023-11/A_HRC_WG.6_44_UZB_1_EN.pdf.

11. Kun.uz report. Press Freedom Index. (2024.05.03)
<https://kun.uz/en/news/2024/05/03/uzbekistan-drops-11-lines-in-press-freedom-index>.